

## DEFEKTALOGIYA FANINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Ubaydullayeva Barnoxon Usmanjanovna

Andijon shahar pedagogika kolleji

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada deffektalogiya fanining mazmun mohiyati imkoniyati cheklangan bolalarni qobilyatlarini o'rganib chiqish va bolalarning salbiy xolatlarni oldini olish haqida muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Defektalogiya, imkoniyati cheklangan bolalar, anomal, lagaped, surdapedagogika, oligofrenopedagogika.

### MAIN DIRECTIONS OF THE SCIENCE OF DEFECTALOGY

### ABSTRACT

This article discusses the content of the science of defectology, the study of the abilities of children with disabilities and the prevention of children's negative situations.

**Keywords:** Defectology, disabled children, anomalous, retarded, deaf pedagogy, oligophrenopedagogika.

### KIRISH

Jamiyatimizda bunday bolalarga bee'tibor bo'la olmaymiz, nuqsoni bor bolalarga mehr va ruhiy dalda berishdan to'xtamaslik lozim. Asosan defektalogiya fani jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixafiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganadigan fandir. **Defektologiya** (lotincha. defectus -nuqson va kamchilik logos-ta'limot va o'rganish) degan ma'nolarni bildiradi. Jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalar rivojlanishining psixofizik xususiyatlarini o'rganish, ularga maxsus ta'lim-tarbiya berish, undagi nuqsonlarni yo'qota borish qonuniyatlarini o'rganiladi. Hozirgi kunda chet davlatlarda bunday bolalar „maxsus yordamga muhtoj bolalar” deb ataladi. Defektologiya fanining vazifasi – bola rivojlanishidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari, turlarini, bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganish, shular, asosida ular uchun segregatsion (differensial) yoki integratsion inkluziv sharoitda ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Defektologiya fanining maqsadi – alohida yordamga muhtoj bolalar uchun differensial yoki inkluziv ta'limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etishdan iborat.

Defektologiya fani ko‘p mamlakatlarda korreksion pedagogika deb yuritilmoqda. Korreksion pedagogika fanining predmeti – anomal bolalar, ya’ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar (yunoncha anomalous – odatdan tashqari), noraso degan ma’noni bildiruvchi so‘zi bilan yuritiladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda Korreksion pedagogika – alohida yordamga muhtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o‘rganadigan, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fandir. Korreksion pedagogika so‘zi lotincha tuzatish – bartaraf etish, pedagogika – ta’lim-tarbiya, o‘rganish degan so‘zlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma’noni bildiruvchi anomalous so‘zidan olingan). Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal, yordamga muhtoj bolalardir. Korreksion pedagogikaning vazifasi – anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o‘rganish, shular asosida integratsiyalashgan, inkluziv yoki differensial ta’limni tashkil etish, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishdir.

### MUHOKAMA

Deffektologiya fani ko‘r va ko‘zi ojiz, kar va qulog‘i og‘ir, aqli zaif, tayanch-harakat appa-ratida nuqsoni bor, nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar deffektologiya fanining ob’yek-tidir. Defektalogiya fanining rivojlanishiga psixalog olim L.V.Zankov, L.S.Vigotskiyning xizmati katta. Ular anamol bolalalar bilan rivojlantiruvchi ta’limni olib borish kerakligini, korreksiya kompensatsiya usullari va bularni amalga oshirish yo‘llarini fanga kiritdilar bundan tashqari I.V. Malyarevskiy, asab va ruhiy kasalliklarga moyil bo‘lgan bolalarga yordam berish maqsadida Rossiyada birinchi tibbiy-ta’lim tipidagi bolalar muassasasining asoschisi bundan tashqari ko‘plab olimlar xam o‘z xissasini qo‘shtigan. Defektalogiya fanining rivojlanishi natijasida uning quyidagi yo‘nalishlari dunyo miqyosida rivojlanib bormoqda:

➤ Karlar pedagogikasi - kar va eshitish qobiliyati past bo‘lgan bolalar muammolarini ko‘rib chiqadigan, shuningdek ularni tarbiyalash va o‘qitish usullarini ishlab chiqadigan alohida yo‘nalish.

➤ Tiflopedagogika - defektologiyaning bir bo‘limi, uning mavzusi ko‘rish qobiliyati past bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyati zaif, ko‘r), shuningdek, bunday shaxslarni o‘qitish va tarbiyalash masalalari ko‘rib chiqiladi.

➤ Nutq terapiyasi - defektologiya bo‘limi, nazariy bilimlarni tizimlashtiradi va nutqni rivojlanmagan odamlarni o‘qitish va o‘qitish bilan bog‘liq amaliy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi.

➤ Oligofrenopedagogika - bu aqliy zaif bolalar va o‘spirinlarning rivojlanishini to‘g‘rilash usullarini o‘rganadigan va ishlab chiqadigan maxsus pedagogik bo‘lim.

Dastlab surdopedagogika va tiflopedagogika paydo bo‘lgan bo‘lib (1770-yil karlar uchun Ispaniyada, 1784-yil ko‘rlar uchun Parijda maxsus muassasa ochilgan). Keyinchalik logopediya va oligofrenopedagogikaga asos solingan. Nuqsonli va psixofizik kamchiligi bor bolalarning ruhiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi maxsus psixologiya, shuningdek, ta’limtarbiya berish, nuqsonlarni tuzatish, tiklash vositalarini ishlab chiquvchi surdotexnika va tiflotexnika ham deffektalogiyaga kiradi. Deffektologiyaning asosiy vazifasi nuqsonli bolalarni aniklash, tashhis usullarini ishlab chiqish, ular uchun maxsus va mujassamlashtirilgan ta’limtarbiyani tashkil etish, aqliy va jismoniy kamchiliklarni yo‘qotish vositalarini izlab topish, amalda qo‘llash, ularni hayotga tayyorlash, ijtimoiy foydali insonlar qilib yetishtirishdan iborat.

## TAHLIL

1. Eshitishida nuqsoni bor bolalar: Nutq-murakkab ruhiy faoliyat bo‘lib, u bolalarning ruhiy o‘sish jarayonlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Umuman ularni barkamol bo‘lib yetishishlarida to‘siq bo‘ladi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo‘lib, atrofdagilarga taqlid etish yo‘li bilan rivojlanib boradi. Eshituv analizotorining rivojlanishi ko‘p jihatdan talaffuzga bog‘liq. Bola nutqining o‘sib borishi tovushlar talaffuzi fiziologik va fonematik eshitishgagina bog‘liq emas, bunga atrofdagilar nutqidagi so‘zlarning tuzilishi tovush tarkibini farqlay bilish ham ahamiyatga ega. Ikkala signal sistemasi, shuningdek idrok va so‘zning o‘zaro aloqada bo‘lishi aqliy rivojlanishning negizini tashkil etadi.

2. Ko‘rishda nuqsonlari bor bolalar: Tiflopedagogikada ko‘zi ojiz bolalar ko‘r va ko‘zi zaif ko‘rvuchi bolalar guruhlariga bo‘linadi. Ko‘r bolalarning ko‘rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko‘rlik) yoki korreksiya qo‘llanilganda (ko‘zoynak tutilganda) ham ko‘rish o‘tkirligi 0,04 gacha pasaygan (ya’ni bunday bolalar amalda ko‘r) bo‘ladi. Zaif bolalarda ko‘rish o‘tkirligi 0,05 dan to 0,04 gacha bo‘lishi mumkin. Ko‘rlik ham tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi. Ular uchun alohida maktabgacha ta’lim va maktab-internatlar mavjud.

3. Og‘ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar: Nutq nuqsoni logopediya fanida o‘rganiladi. Nutq nuqsoni o‘z-o‘zidan barham topmaydi, balki vaqt o‘tgan sari yanada og‘irlashib, zo‘rayib boradi. Nutq nuqsoniga ega bolalalar logapedik yordamga muhtoj bo‘ladi. Og‘ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga, balki, umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda bunday kasallik bilan tug‘ilgan bolalar soni juda ortib bormoqda, bunga turli sabablar mavjud. Onalarning homila davrida o‘tkazgan stres holatlari, asabiylashish, siqilish va boshqa hodisalar sabab bo‘lmoqda. Bunday bolalar ko‘rinishidan nuqsonsiz sog‘lom bolalarga o‘xshaydi. Hozirda yurtimizda va jahonda bunday bolalarga shart-sharoit yaratilmoqda, iqtidorlarini yuzaga olib chiqish yo‘llari o‘rganilmoqda.

4. Ruhan sust rivojlangan bolalar (aqli zaif o‘quvchilar) Ulgurmovchi o‘quvchilar orasida ruhan sust rivojlangan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati markaziy nerv sistemasidagi modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqqan. Yengil patalogik o‘zgarishlar vaqtincha buzilgan bo‘ladi. Ruhan sust rivojlangan bolalar aqliy darajasi jihatidan ikki guruhga bo‘linadi.

### XULOSA

Surdapedagogika, tiflopedagogika, olinofrenapedagogika, logopediya bu 4 yo‘nalishlarni 3 turga ajratiladi bular yengil, o‘rta va og‘ir turlari mavjud bo‘lib xar bir nuqsoni bor bolalar uchun jamyatimizda xam ularga yordamlar yani moddiy va mana’viy ko‘maklar ajratilgan bundan tashqari bu bolalarga atrofidagi yaqinlari xam yordam berishi shart bo‘ladi. Mamlakatimizda bunday bolalar uchun maxsus dasturlar va kinolar ishlab chiqilsa bularga ko‘proq yordam bo‘ladi.

### REFERENCES:

1. Lex.uz/.O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. Lex.uz/.O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV. Toshkent sh., 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son
3. Veronova T.V. Teoriya i praktika korreksionnoy pedagogiki. - Minsk.:2007.
4. Vospitatelnaya rabota v shkole slaboslishaщих. Iz opita raboti surdopedagogov. Pod red. L.V.Nikulinoy. - M.: Prosveshenie, 1981.
5. Zikova T.S., Zikova M.A. Metodika predmetno-prakticheskogo obucheniya v shkolax dlya gluxix detey. -M., “Akademiya”. 2002.
6. J. Hasanboyev, X.A To‘raqulov, I.SH. Alqarov “Pedagogika” darslik 2011-yil. 418-428 betlar.
- 7.Qo‘chqorov R.Qarshiboyev M Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch kitobini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma -T.:Yangiyo‘l Poligraph Service, 2008.-20-21-betlar.
- 8.Xasanova Z “Ta’limni pedagogik jarayon qonuniyatları asosida tashkil etishda ta’lim prinaplarning tutgan o‘rni” mavzusidagi referati